

XONQA SHEVASIDA IBORALARNING O'RNI

Olimboyeva Komila Umarbek qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti Talaba

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati Xonqa tumani shevasida uchraydigan iboralarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning xalq og'zaki nutqidagi o'rni va funksional vazifasi tahlil qilinadi. Maqolada iboralarning milliy madaniyat, urf-odat va xalqona tafakkur bilan uzviy bog'liqligi, ularning adabiy til iboralari bilan farqli jihatlari hamda nutqdagi emotsional-estetik ta'sir kuchi yoritiladi. Tadqiqot natijasida Xonqa shevasi o'ziga xos obrazlilik va ifoda boyligiga ega bo'lganligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Xonqa shevasi, ibora, sheva leksikasi, xalq og'zaki nutqi, milliy madaniyat, emotsional-estetik ta'sir, leksik-semantik xususiyatlar, nutq madaniyati.

Аннотация. В данной статье анализируются лексико-семантические особенности фразеологических выражений, встречающихся в ханкинском диалекте Хорезмской области, а также их роль и функциональное значение в устной народной речи. Рассматривается взаимосвязь фразеологизмов с национальной культурой, традициями и народным мышлением, выделяются отличительные черты ханкинских выражений по сравнению с литературным языком, а также их эмоционально-эстетическое воздействие на речь. В результате исследования установлено, что ханкинский диалект отличается богатством образности и выразительности.

Ключевые слова: Ханкинский диалект, фразеологизм, диалектная лексика, устная народная речь, национальная культура, эмоционально-эстетическое воздействие, лексико-семантические особенности, культура речи.

Annotation. This article analyzes the lexical and semantic features of phraseological expressions found in the Khonka dialect of the Khorezm region, as well as their role and functional significance in oral folk speech. The study examines the connection between phraseological units and national culture, traditions, and folk worldview. It also highlights the distinctive features of Khonka dialect expressions compared to those of the literary language, along with their emotional and aesthetic impact on speech. The research results show that the Khonka dialect is characterized by a rich imagery and expressive capacity.

Key words: Khonka dialect, phraseology, dialectal lexicon, oral folk speech, national culture, emotional and aesthetic impact, lexical-semantic features, speech culture.

KIRISH. Til — millatning eng muhim belgisi, xalqning ma'naviy boyligi va madaniyati ifodasidir. Har bir xalq tili o'zining ichki tuzilishi, leksik boyligi, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan birga, o'ziga xos shevalari orqali ham milliy ruhni saqlab keladi. O'zbek tili shevalari orasida Xorazm vohasi, xususan, Xonqa shevasi alohida o'rin tutadi. Bu sheva o'zining qadimiy ildizlari, xalqona ifodalari va obrazli iboralari bilan ajralib turadi.

Xonqa shevasida uchraydigan iboralar nafaqat muloqot jarayonining bezagi, balki xalqning dunyoqarashi, fikrlash tarzi va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi muhim vositadir. Ular orqali xalqning hayotiy tajribasi, hazil-mutoyiba, e'tiqod va estetik qarashlari aks etadi. Shu jihatdan, iboralar Xonqa shevasining leksik-semantik tizimida alohida o'ringa ega bo'lib, ularni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik uchun ham ahamiyatlidir.

Mazkur maqolada Xonqa shevasidagi iboralarining tuzilishi, ma'no xususiyatlari va ularning nutqdagi funksional vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Xonqa shevasining ifoda boyligini ochib berish, o'zbek xalqining milliy tafakkurini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

MUHOKAMA. Tadqiq ostiga olayotganimiz Xonqa shevasi O'zbekistonning shimoli-g'arbiy hududlarida keng tarqalgan bo'lib, qadimiy turkiy tillar asosida shakllangan. Shevada ko'plab arxaik so'zlar, o'ziga xos talaffuz va o'zbek adabiy tilidan farq qiluvchi leksik birliklar mavjud. Shevada iboralar ko'p hollarda adabiy tilga nisbatan obrazliroq, ifodaliroq va xalqona tusga ega bo'ladi. Bunday iboralar ko'pincha hissiy holatni, kayfiyatni yoki munosabatni aniq va obrazli yetkazish uchun xizmat qiladi.

Iboralar, asosan, og'zaki nutqda, ayniqsa oilaviy, qo'shnichilik, to'y-ma'raka kabi ijtimoiy muhitlarda keng qo'llaniladi. Shuningdek, xalq maqollari, matallar va ertaklarda bu iboralar ko'p uchraydi, bu esa ularning xalq og'zaki ijodida mustahkam o'rin egallaganligini ko'rsatadi.

Quyida shevada faol qo'llaniluvchi iboralar va ularning izohlaridan namunalar keltiramiz.

Āyzīnī āčīš. Ushbu ibora ishini o'rinda qila olmaydigan, ongsizlarcha harakat qiladigan shaxslarga nisbatan ishlatidi:

Āyzīnī āčāvārmī:n tez-tez dārpān

Āyzīnī tūjī čīqi:nčā sōllāš – juda ko'p gapirgan kishilarga nisbatan ishlatiladi:

Isāp sānā, āyzīnī tūjī čīqi:nčā sōllādīn lekīn

Shuningdek, bu iboraga sinonim tarzda ishlatiluvchi iboralar ham sheva foydalanuvchilari nutqida faol: “āyzī qanaji:nčā sōllādī”, “āyzī āñākīnī jegān”, “āyzī mīnnīnī jegān”, “gāp āmgān”

Innā jutgān xādādin – o'ta ozg'in, novcha ma'nosida qo'llaniladi:

Qi:zīn sīrā bīr sāmrīmādī- sāmrīmādī: innā jutgān xādādin

İstānīnī källāsīnā gijādī - murosaga kelmaydigan, pashshadan fil yasaydigan qattiq janjalkash insonlarning belgisi sifatida ishlatiladi:

Šu xātīn dīm žālātāy, qāčān qārāmā īstānīnī källāsīnā gijādī

Bītīnā qān bārmidī - o'ta xasis, ziqna insonlarga nisbatan qo'llaniladi:

Vīnnān pul sorāb yūrmā, bītīnā qān bārmidī vī

Itā xajrī deymi:dī - biror foydali ish qilmasdan doimo bekor yuradigan kishilarga nisbatan qo'llaniladi:

Gūn bojī qu:rī vānnān bānā ōtdīn bīr itā xajrīn dejmādī

It qujruqīnī bulāyān žajdān qamidī - aytilgan-aytilmagan hamma joyga boradigan insonlar uchun kesatiq ma'nosida ishlatiladi:

Ūkān sīrā bīr žājda ōtīrmidī, it qujruqīnī bulāyān žajdān qamidī

Bu iboraga sinonim tarzda “gečīnī āldī ajaqī” iborasi ham jonli nutqda faol qo'llaniladi.

Ökčäsində ājlānādi - yumushlarni tez-tez bajaruvchi, o'ta chaqqon insonlarga nisbatan ishlatiladi:

Ämmämnî gälinî dîm čäqqan, ökčäsində ājlānādi

Itä sājā bärmiđi - har doim bekor yuradigan insonlarga nisbatan qo'llaniladi:

Qāčān qārāmā jātādî šu qizîñ itä sājā bärmi:n

Bu kabi iboralar, odatda, kundalik muloqotda, ayniqsa qishloq aholisi orasida faol ishlatiladi. Ular orqali nafaqat mazmun yetkaziladi, balki muloqotga hissiy rang beriladi.

XULOSA. Xonqa shevasidagi iboralar xalq tilining eng sermazmun, obrazli va ifodali qatlamlaridan biridir. Ular nafaqat muloqotni bezab turuvchi estetik vosita, balki xalq tafakkurining, dunyoqarashining, axloqiy-me'yoriy qarashlarining ham ko'zgusidir. Iboralar orqali insonlarning bir-biriga bo'lgan munosabati, hayotga qarashi, his-tuyg'ulari, quvonchu hasrati, kinoyu tanqidlari mohirona ifodalab beriladi.

Ushbu iboralar, ko'pincha, umumxalq tilidagi iboralardan grammatik tuzilishi, fonetik o'ziga xosligi yoki semantik yuklamasi jihatidan farq qiladi. Bu jihatlar ularni nafaqat lingvistik, balki madaniy kontekstda ham alohida o'rganishga loyiq qiladi. Xorazm shevasidagi iboralarni ilmiy tahlil qilish orqali biz xalqning tarixiy ijtimoiy hayotiga, og'zaki ijod an'analariga va til taraqqiyotidagi o'zgarishlarga chuqurroq nazar tashlashimiz mumkin bo'ladi.

Kelajakda bu boradagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, iboralarning mintaqaviy xususiyatlarini sinchiklab tahlil qilish, ularni yozma va og'zaki manbalarda kuzatish, yosh avlodga yetkazish – muhim ilmiy va ma'naviy vazifa sifatida dolzarbdir. Ayniqsa, Xonqa shevasida so'zlashuvchi avlod vakillarining tilidan jonli iboralarni yig'ish, ularning qo'llanish kontekstlarini hujjatlashtirish orqali milliy tilimizni yanada boyitish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedov A. O'zbek tili dialektologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2015.
 2. Rasulov R. O'zbek frazeologiyasining asosiy masalalari. – Toshkent: Fan, 1981.
 3. Qodirov S. Frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
 4. Abduazizov A. O'zbek tili shevalarining fonetik tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
 5. Mahmudov N. Til va milliy ong: o'zbek tili misolida. – Toshkent: Fan, 2016.
- Учитель, проверенный временем: путь, который становится дорогой для других